

O'RTA OSIYO DAVLATLARINING XVIII - XIX ASR BIRINCHI  
YARMIDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI VA KARTOGRAFIK  
TADQIQOTLAR

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

**Mamasaidova Ruxshona Qarshi qizi**

*ruxshonamamasaidova518@gmail.com.*

*Tel: +998944611363.*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

**Usmonov Nurmuhammad Eshmahmat o'g'li**

*nurmuhammadu06@gmail.com.*

*Tel: +998903777796*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi*

**Xurramov Otabek Tolib o'g'li**

*otashbekxurramov28@gmail.com*

*Tel. +998908727203*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolani yozishdan maqsad O'rta Osiyo hududidagi davlatlarning XVIII-XIX asr birinchi yarmidagi tarixiy geografiyasini, ya'ni ularning joylashgan hududi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, qaysi davlatlar bilan chegaradosh bo'lganligi, shuningdek davlatlarning qaysi hududlarda hukmronlik uchun kurash olib borganliklari va nima uchun bu hududlarga alohida e'tibor berganliklari haqida bilib olishimiz mumkin. Bu davr asosan xonliklar davriga to'g'ri kelib, uch o'zbek davlatlarining mintaqada hukmronlik uchun kurashi tashqi dushmanlarga qarshi kurashda o'zaro yakdil bo'lmaganliklari haqida shuningdek bu davlatlarning qaysi hududlarda savdo iqtisodiy aloqalarni keng olib borganliklari haqida aniq bilimlarga ega bo'lamiz.

**Kalit so'zlar:** Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi, Beklik, Farg'ona, Zarafshon vodiysi, Chorjo'y, Marv, XIX asr birinchi yarmi, Ichan qal'a, Dishan qal'a.

**Abstract:** The purpose of writing this article is to describe the historical geography of the states in Central Asia in the first half of the 18th-19th centuries, i.e. their location, socio-economic status, which states bordered them, as well as which states fought for dominance in which territories and why this is so. we can learn about their special attention to the regions. This period mainly coincides with the period of the Khanate, and we have clear knowledge about the struggle of the three Uzbek states for dominance in the region, the fact that they did not agree with each other in the fight against external enemies, as well as about the areas in which these states had extensive trade and economic relations.

**Key words:** Bukhara Emirate, Khiva Khanate, Kokan Khanate, Beklik, Fergana, Zarafshan Valley, Chorjoy, Marv, first half of XIX century, Ichan Castle, Dishan Castle.

**Аннотация:** Целью написания данной статьи является описание исторической географии государств Средней Азии в первой половине XVIII-XIX веков, т.е. их местоположения, социально-экономического положения, какие государства с ними граничили, а также какие государства За доминирование на каких территориях боролись и почему это так, об их особом внимании к регионам мы можем узнать. Этот период в основном совпадает с периодом ханства, и мы имеем четкие сведения о борьбе трех узбекских государств за господство в регионе, о том, что они не соглашались друг с другом в борьбе с внешними врагами, а также о сферах, в которых эти государства имели обширные торгово-экономические связи.

**Ключевые слова:** Бухарский эмират, Хивинское ханство, Коканское ханство, Беклик, Фергана, Заравшанская долина, Чорджой, Марв, первая половина XIX века, замок Ичан, замок Дишан.

Buxoro amirligi. XIX asrning birinchi yarmida Buxoror amirligi o'zbek xonliklari orasida muhim mavqega ega edi. Bu davrga kelganda amirlik hududi 200 ming kvadrat km ni tashkil etib, uning chegaralari, janubda Amudaryoning so'l qirg'oqlaridan Sirdaryogacha cho'zilib, qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Amirlik sharqda Pomir tog'laridan tortib, g'arbda Xiva xonligiga qadar bo'lgan hududlarni ishq'ol etardi. Buxoro va Samarqand kabi shaharlar joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markazi hisoblanar edi. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, hozirgi Tojikiston hududidagi Vaxsh, Kofirnihon, Panj daryolari vodiysida joylashgan shahar va qishloqlar, hozirgi Turkmaniston hududidagi Murg'ob daryosi vohalaridagi yerlar Buxoro amirligiga qarar edi.

Buxoro amirligini poytaxti sharqda eng nufuzli shahar sifatida e'tirof etilgan buxoroyi sharif edi. Yirik shaharlardan Samarqand, Shahrisabz, Kitob, Termiz, Sherobod, Hisor, Dushanbe, Ko'lob va boshqalar amirlik tasarrufida bo'lgan edi. Marv va Chorjo'y shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Xiva xonligi o'rtasida, Jizzax, O'ratepa va Xo'jand shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Qo'qon xonligi o'rtasida tez-tez urushlar bo'lib, bu shaharlar qo'ldan qo'lga o'tib turardi.[1]

XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligida 2 millionga yaqin aholi yashardi. Aholi amirlikni sersuv vohalarida yashab, jazirama issiq, suvsizlik hukmronlik qilgan Qizilqum sahrolari va cho'llari kimsasiz yastanib yotardi. Zarafshon vodiysida 300-350 ming, Qashqadaryo vohasida 500 ming, Surxondaryo vohasida 200 ming, Sharqiy Buxoroda 500 mingcha aholi yashardi. Amirlikning yirik shaharlari- Buxoroda 60 ming Samarqandda 50 mingga yaqin aholi yashardi. Buxoro

amirligining Hisor, Dushanbe, Sharqiy Buxorodagi Vaxsh, Kofirnihon va Panj daryolari vodiylarida asosan tojiklar yashar edi. Amirlikning janubiy va g'arbiy qismida Turkmanlar, shimoli sharqiy tomonida qozoq va qirg'izlar yashardi. Shuningdek, amirlik hududida avg'onlar, eronliklar, arablar, yaxudiylar, hindlar va boshqa etnik guruhlar mavjud edi. Buxoro amirligi 27 ta beklik: Karmana, Xatirchi, Ziyovuddin, Nurota, Qarshi, Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabog', G'uzor, Boysun, Sherobod, Denov, Karki, Chorjo'y, Hisor, Ko'lob, Qorategin, Darvoz, Baljuvon, Sho'g'non-Rushon, Qo'rg'ontepa, Qo'bodiyon, Kalif, Bo'rdalik, Qobodiyon beklklaridan iborat edi. Har bir beklikni amir tomonidan tayinlab qo'yiladigan hokimlar - beklar idora qiladi.[2] Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi o'rtasida doimiy talash bo'lgan hududlar Xo'jand va O'ratepa 1840-yilda Buxoroga qo'shib olinadi. Shuningdek 1842-yilda Qo'qon xonligi ham qisqa muddatga egallanadi. Ko'pdan beri Buxoro amirligi qo'ldan ketgan Marv uchun Xiva xonligi bilan kurash olib borayotgan edi, va nihoyat 1843- yilda Marv Buxoro amirligi tomonidan zabt etildi. Ammo Xiva xonligi ham bo'sh kelmay 1855- yilda Marvga hujum qilib bu hududni egallaydi, ammo Xiva xonligi bu bilan cheklanib qolmaydi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi o'rtasida Chorjo'y uchun ham doimiy raqobat bo'lib turgan. Buxoro amirligi bu davrda asosan Rossiya, Afg'oniston, Hindiston, Eron davlatlari bilan tashqi savdo aloqalari olib bordi Yirik savdo-sotiq markazi bo'lgan Buxoroda 1848-yilda 38 ta karvonsaroy, 9 ta tim va ko'plab bozorlar bo'lgan.

Xiva xonligi. Manbalarda ko'rsatilishicha, XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligining hududi 19 ming kvadrat km ni tashkil etgan. Xonlik janubda Eron bilan, sharqda Buxoro amirligi, g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Suvsiz, cheksiz Qoraqum, Qizilqum sahrolari Xiva xonligini hududiy jihatdan boshqa mamlakatlardan ajratib qo'ygan edi. Quyi Amudaryo bo'yi Xiva xonligining markaziy qismini tashkil etardi. Amudaryo sohillarida joylashgan Xiva, Urganch, Qiyot, Ko'hna Urganch, Hazorasp, Qo'ng'iro't, Xo'jayli, Kurdar, (Hozirgi Chimboy) shaharlari xonlikning yirik shaharlari edi. O'rta Osiyoning eng boy savdo markazlaridan biri bo'lgan Xiva shahri xonlikning poytaxti hisoblanardi. Shahar ikki qismdan Ichan qal'a (shaharning ichki qismi) va Dishan qal'a (shaharning tashqi qismi) dan iborat edi. Ichan qal'ada xon qarorgohi va harami, 17 ta masjid, 22 ta madrasa, karvonsaroy va bozor joylashgan bo'lib, ular asosan XIX asrda barpo etilgan. 1842 - yilda Dishan qal'a qurilib, devor bilan o'rab olinadi. Dishan qal'ada hunarmandlar, savdogarlar, mardikorlar, qisman dehqonlar ham istiqomat qilgan.

Xiva xonligida taxminan 800 mingga yaqin kishi yashardi. Aholini ko'pchilik qismi o'zbeklar bo'lib, ulardan eng kuchli va ko'p sonlilari qo'ng'iro't, nayman, qiyot, uyg'ur, nukuz, qang'li, xitoy, qipchoq qabilalari edi. O'zbek qabilalari asosan Amudaryo tarmoq yoygan qismida, kanallar bo'ylarida joylashgan edi. Qoraqalpoqlar yashaydigan Amudaryoning quyi havzasi va Orol dengizining janubiy qirg'oqlari Xiva

xonligi tasarrufida edi. Xonlikning shimoliy qismida qozoqlar yashardi. Shuningdek, xonlikda qisman forslar, arablar va boshqalar ham yashagan. XVI-XVII asrlarda xonlikning ma'muriy jihatdan bo'linishi viloyat deb atalgan bo'lsa, XVIII asrdan beklklar deb atala boshlangan. Dastlab xonlikda 16 ta viloyat, 2 ta noiblik bo'lgan bo'lsa, keyinchalik viloyatlar soni 22 taga yetgan. Ularni xon tomonidan tayinlanadigan hokim va noiblar boshqargan. Xonlikda xon va amaldor hamda diniy ulamolarning mavqei baland bo'lib, yer ham ularning qo'lida bo'lgan. Kam yerli va yersiz dehqonlar ulardan ijaraga yer olib ishlaganlar va ularning ahvoli juda yomon bo'lgan. Sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq mamlakat iqtisodida muhim o'rin tutgan. [3] Ma'muriy -hududiy jihatdan Xiva xonligi Xazorasp, Gurlan, Xonqa, Ko'xna Urganch, Qo'shko'pir, Pitnak, G'azovot, Qiyot, Shohaboz, Shovot, Toshxovuz, Ambor-manoq, Urganch, Xo'jayli, Tumanoy, Qo'ng'iro't kabi beklk yoki viloyatlarga bo'lingan. Bekliklarni xon tomonidan tayinlangan beklar, noibliklarni noiblar idora qilgan. Xiva va Buxoro hukmdorlari o'rtasida Murg'ob daryosi bo'ylari uchun, Marv uchun qirg'inbarot urushlar bo'lib turar, bu hududlar qo'ldan qo'lga o'tardi. Xonlikda shimoldan qalmoqlar, qozoqlar, Ural kazaklari tez-tez hujum qilib talofatlar keltirardi. Xiva xonligi asosan Buxoro, Qo'qon, Eron va Rossiya kabi qo'shni davlatlar bilan savdo-sotiq ishlarini olib borgan. Qo'qon xonligi. XVIII asr boshlariga kelib Buxoro xonligidagi siyosiy parokandalik unga rasman qaram bo'lgan Farg'ona vodiysiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Chust yaqinidagi Chodak qishlog'ida yashovchi xo'jalar ancha ko'chayib, 1709-yilda hokimiyatni qo'lga oladilar va mustaqil davlat tuzilganini e'lon qiladilar. XIX asr birinchi yarmida Qo'qon xonligi hududiy jihatdan O'rta Osiyodagi yirik davlat edi. Qo'qon xonligi sharqda Sharqiy Turkiston, g'arbda Buxoro amirligi bilan chegaradosh edi. Xonlik hududi shimolda uchala qozoq juzlarini batamom o'ziga bo'ysundirib olgan Rossiya bilan chegaralanardi. Xonlikning janubiy chegaralari Qorategin, Ko'lob, Darvoz, Sho'g'non, singari tog'li hududlarni o'z ichiga olar, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan qonli urushlar bo'lar, bu hududlar tez- tez qo'ldan qo'lga o'tib turardi. [4] Xonlikning markazi Qo'qon, Marg'ilon, O'zgan, Andijon, Namangan kabi yirik shaharlar joylashgan Farg'ona vodiysi edi. Toshkent, Chimkent, Turkiston, Avliyoota, Pishpak, So'zak, Oqmachit kabi yirik shaharlar ham Qo'qon xonligi tasarrufida edi. Qo'qon xonligida aholi nisbatan zich joylashgan bo'lib, taxminan 3 millioncha kishi yashardi. Xonlikning poytaxti Qo'qonda 80 ming, Toshkent shahrida 60 ming aholi yashagan. XIX asrning birinchi yarmida xonlik ma'muriy jihatdan 15 ta beklklarga bo'lingan. Manbalarda ularning nomi quyidagicha keltirilgan Qo'qon va uning atrofi, Marg'ilon, Shahrixon, Andijon, Namangan, So'x, Mahram, Buloqboshi, Arovan, Baliqchi, Chortoq, Novkat, Koson, Chust va Bobodaxon Mahalliy boshqaruv tizimining tepasida xon tomonidan tayinlangan bek va hokimlar turgan. Qo'qon xonligining qudratli kuchga aylanib borayotganini Buxoro amirligi ham tan olmasdan

iloji yo‘q edi. Garchi ikki o‘rtada O‘ratepa uchun hanuz kurash ketsada, biroq Qo‘qonliklarning 1837-yili Qorategin va Darvozni ham bo‘ysundirishlari har xolda xonlik siyosiy mavqeining oshishida katta voqea bo‘lgan.[5]

**Xulosa:** Xulosa qilib aytganda, XVIII -XIX asrlarda O‘rta Osiyo hududida hukmronlik qilgan uch o‘zbek davlatlari yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek geografik jihatdan yashash uchun eng qulay hududlarda yashaganlar. Shuning uchun ham ular doimo bu hududda hukmronlik uchun kurash olib borganlar. Shuningdek ushbu maqolada har bir o‘zbek davlatining ma‘muriy-hududiy tuzilishi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, o‘zaro olib borgan tashqi savdo aloqalari haqida aniq ma‘lumotlar berib o‘tilgan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova. "O‘zbekiston tarixi".T. 2006.200-b
2. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S.Burxonova. "O'zbekiston tarixi". T. 2006.204-b
- 3.R. Xoliqulov. K. G'aniyev. M. Nasrullayev. "O'zbekiston tarixi" S. 2019.178-b
- 4.Q. Usmonov. M. Sodiqov. S. Burxonova "O'zbekiston tarixi" T. 2006.206-b
- 5.A.Ziyo "O‘zbek davlatchiligi tarixi" T. 2001. 293-b .